



## TARBIYA FANINI O'QITISHDA KEYS-STADI METODINI QO'LLANILISHI.

**Solijonova Niluzar .**

*Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi 4-  
bosqich talabasi*

**Xudayberganova Bibinur.**

*Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi 4-  
bosqich talabasi*

**Kalonova Laylo**

*Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi 2-  
bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** salomlashish odobi haqida mavzu olinib, odobli bola bilan tarbiyasiz bola haqida, keys stadi metodini qo'llash, farosatli bola qanday bo'ladi, kattalar so'zi, bir bolaga yetti mahalla ota-ona, bola tarbiyasi muhimligi, e'tibor yetarlicha bo'lislighi.

**Kalit so'zlar:** odob, salomlashish, tarbiya, tarbiyasiz, kattalar so'zi, mahalla, keys stadi metodi, ota-ona.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz Islom ta'lifotlari insoniyatni go'zal xulq-u odoblar bilan ziynatlab, ezgu fazilatlar kasb ettiruvchi ilohiy yo'l-yo'riq va ko'rsatmalardan tashkil topgan. Paygambarimiz Muhammad alayhissalom ham bir hadislarida shunga ishora qilib, "aslida, men oliyjanob xulqlarni kamoliga yetkazish uchun yuborilgandirman", - deya marhamat qilgan edilar (Imom Ahmad: musnad; Hokim; Bayhaqiy; Bukhoriy: al-adab al-mufrad; Ibn Abu-d-dunyo rivoyatlari). Ushbu hadisi sharifda u zot o'zlarining payg'ambar sifatida yuborilishlaridan ko'zlangan maqsadlardan biri oliyanob xulq va fazilatlarni kamol toptirish ekanligidan xabar bergenlar. Mazkur oliyjanob xulqlardan biri ham islomiy salomlashuvdir. Albatta, har bir xalq va madaniyatning o'z salomlashish uslubi bor. Islomdan avval ham odamlar bir-birlari bilan turli hil ko'rinishlarda salomlashganlar. Ammo, Islom salomi o'ziga hos. Negaki, uni odamlar emas balki, Alloh taoloning o'zi so'nggi payg'ambari Muhammad alayhissalom orqali joriy qilgan. Binobarin, mazkur salom bilan salomlashgan kishilar qo'shimcha ajr-savoblarni ham qo'lga kiritadilar. Chunki, ular nafaqat salomlashayotgan, balki, dindagi bir buyruqni amalga oshirib, bir sunnatni tiriltirayotgan bo'ladilar. Bu jihatdan salomlashuvning o'zi bir ibodat, desak yanglishmagan bo'lamiz.

"Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan edilar Abdulla Avloniy. Bolajonlarimizga o'qitilishi uchun tarbiya fanini darsliklarimiz orasiga qo'shilgan. Avval Vatan tuyg'usi, Milliy g'oyalar kabi darsliklarimiz bo'lgan, hozirgi kunda bu darsliklar yangilanib Tarbiya faniga o'zgartirildi." Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni tarqqiyotga yetaklaydi" deb yozib o'tdilar muhtaram Prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev" YANGI O'ZBEKİSTON



TARAQQIYOT STRATEGIYASI" asarlarida kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash ularga to'ri tarbiya bera olish har-bir ota-onada ustozning burchidir. Oiladagi tarbiya bolaga shundayligicha o'tib,u oilasining yaqqol ko'zgusi bo'la oladi.Bolaga birinc hi nima o'rgatiladi oilada? Albatta salomni o'rgatiladi.Bolaga kattalarga nisbatan salomni qanchalik chroyli bersa shunchalik odobi haqida gapirib o'tiladi.Tarbiya darsida 1-sinfga qadam qo'ygan bolajonlarimizga eng boshida Salom to'g'risida ma'lumot berib o'tiladi.Mavzu:Salomlashish odobi,mavzu haqida qisqacha ma'lumot beriladi.Salomlashish insonlar orasida Mehr oqibat va do'stlik tuygusini paydo qiladi.Chunki salomlashish orqali insonlar bir-biriga salomatlik va tinchlik tilaydilar. Salomlashish qoidalari tushuntiriladi. Mavzu haqida bolada tushuncha paydo bo'ladi,

Keystadi metodini qo'llasak bo'ladi.Keys stadi metodi bu metodning nomi inglizcha "case-study" so'zlaridan olingan. case- yashik, quti, gilof, jild, "study" – o'rganish, tadqiq qilish, ilm bilan shug'ullanish, o'quv fani, saboq olish, o'qish ma'nolarini bildiradi. Bu metod haqida inglizcha aytildigan "case - true life", ya'ni "keys – haqiqiy hayot" iborasiga ko'ra keys – real hayotning «bir parchasidir». Shunga ko'ra bu metodni "amaliy holatlarni o'qitish metodi" deb ham ataladi.Keys-stadi metodi bo'yicha o'rganilayotgan har bir muammo yoki mavzu yuzasidan amalgalashish ishlar rejasiga, ularni bajarish tafsiloti, natijalar va xulosalar yig'indisi alohida keysni tashkil qiladi. Bu metod ta'lim jarayonida hayotiy vaziyatlardan foydalanshga qaratilgan.Bolalar bilan shu metod bo'yicha dars bo'lagini o'tkazamiz.Bolajonlarimizni 3 guruhgaga bo'lib guruhalarga mavzu tashimiz.Salomlashish bo'yicha .1 guruhgaga transportdagi vaziyat bo'yicha,2 guruhgaga jamoat joylarga kirishda,3 guruhgaga mahalladagi nuroniylar bo'yicha beramiz.Bolajonlarimiz 3ta vaziyat bo'yicha ko'rinish qilib yechimini aytib o'tishadi.Salom berishlik odobi haqida qisqacha aytildi vaziyat boshida boalalar Ertalab turib yuzlarini yuvganda so'ng kattalarga salom berishligi,yuzni yuvmasdan turib salom berishlik odobsizligi,xonaga kirgan odam xona ichidagi odamlarga salom berishligi haqida,yurib ketyotgan odam o'tirgan odamga salom berishligi,odobli bola yuzida tabassum bilan Assalomu alekum deyishligi haqida tushuncha berib o'tiladi.Keys stadi metodi muommoli vaziyatlarni o'rganib chiqish va tahlil qilish .Bolalarga bergen mavzularimiz bo'yicha multimedia vositasi orqali vidyo rolik qo'yilib shu boyicha 3 jamoa 3 hil vidyo rolikni tahlil qilib o'tishlari mumkun.O'quvchilar o'zlarini bilimlarini mustahkamalaydi va bu metod orqali hotiralarida qoladi,chunki birinchi sinf hamma narsaga qiziquvchan bo'ladi.Avval salom keyin kalom deb aytildi. Salom berib boshlangan gap bir biriga tushib ketadi, muloqot qiluvchi insoningiz bilan oradagi suvuqchilikni oladi ,shuning uchun salomni kanda qilama o'gatishimiz lozim.Bir bolaga yetti mahalla ota-onadir deya bejiz aytishmaydi dono halqimiz keksa nuroniylarimiz malladagi yoshi katta insonlar ham bolaga to'g'ri tushuntirib qo'ysalar bolajonlarimiz ulardan o'rnak olib yaxshi fazilatli,go'zal xulqli,bo'lib yetishishadi.Boladagi yaxshi fazilatlarni ko'payishida ota-onaning ham o'rni



kattadir.Har bir harakatlarini bitiborsizlik bilan emas e'tibor bilan kuzatilsa biz o'ylagan kelajak yetishib chiqadi.

Xulosa qilib aytish joizki insonlar har kuni bir-birlariga sog'lik, tinchlik, omonlik, yaxshilik, ezgulik, to'kinlik va ravnaq tilashlari zarur va shart ekan. Salomlashishda kishi qay ruhiy holatda bo'lmasin, qo'lini ko'ksiga qo'yib, labiga nimtabassum yogurtirib salom berishi yoki alik olishi — madaniy hayotimizning dastlabki nishonasi. Hatto boshqa millat vakillari bilan xorijiy tilda muloqotga kirishishdan oldin qo'limiz ko'ksimizda, o'zbekona lutf bilan «Assalomu aleykum» deyishimiz — milliy g'ururimiz nishonasi. Demak, salomlashish odobimiz — bu milliy madaniyat, o'zaro hurmat-izzat, jamiyatimiz jipsligi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

"YANGI O'ZBEKİSTON TARAQQIYOT STRATEGİYASI" 211 bet Shavkat Mirziyoyev Tarbiya 1 Baxt va muvaffaqiyat siralri. G'ofur G'ulom Nomidagi nashtiyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent2020.7-bet.

Shuhratbek.uz.

uzbekistonmet.uz